



1913-yil aprel oyidan chiqqa boshlagan

Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!2023-yil 30-sentabr, shanba,
116 (23.837)-sonKUN
HIKMATIHar qanday
iqtidor ilmiga
tayanmasa,
kashfiyotga
aylana olmaydi

O'ZBEKİSTON O'QİTUVCHI VA MURABBIYLARIĞA

Muhtaram ustozi va murabbiylari!

Avvalo, sizlarni, ta'lim-tarbiya sohasining barcha jonkuyar xodimlari va faxriyalarini umumxalq bayrami – O'qituvchi va murabbiylar kuni bilan chin qalbimdan muborakbod etaman.

Bugun biz mamlakatimizda milati, tili, dinidan qat'i nazar, har bir inson o'z qobiliyatini va iste'dodini, bilim va tajribasini ro'yogha chiqara oladigan ijtimoiy davlat barpo etmoqdamiz. Shu maqsadda barcha kuch va imkoniyatlarimizni yoshlariimizning intellektual va jismoniy kamoloti, ularning sifatlari ta'lim olib, hayotda munosib o'rinnegallashlari uchun safarbar etmoqdamiz.

Yaqinda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyesining 78-sessiyasida ta'lim sohasidagi islohotlarimiz ushbu nufuzli tashkilotning "Barqaror rivojlanish masqadlari"ga uyg'un va hamohang ekani e'tirof etilgani barchamizni albatta xursand qildi.

Bu yil yangi tahriridagi Konstitutsiyamizda ilk bor o'qituvchi maqomi alohida belgilanlik, ta'limgizmini rivojlantirish davlatning bosh vazifalari qatoriga kiritilgani bejiz emas. Chunki, jamiyat hayotida o'qituvchining o'rni va ta'siri oshsa – maktabning obro'yi oshadi, ilm-fan, ta'lim va tarbiya sohasining qadri ko'tariladi. Muallimning obro'-'e'tibori esa bu millatning, butun xalqning obro'-'e'tiboridir.

So'ngi yillarda birligakdagi sa'y-harakatlarimiz tufayli mamlakatimizda ko'plab yangi bog'chalar, maktab va oliygoҳolar barpo etilmoqda. Ta'lim-tarbiya va ilm-fan muassasalarining mod-diy-texnik bazasi, kadrlar salohiyati mustahkamlamoqda. Darslik va o'quv qo'llanmalarining yangi avlodari yaratilmoqda.

Soha xodimlarining mashqatli mehnatini munosib qadrash va rag'batlantrish doimiy e'tiborimiz markazida bo'lib kelmoqda. Oxirgi yetti yilda maktabgacha ta'lim bo'yicha qamrov darajasini 27 foizdan 72 foizga, olyi ta'limda esa 9 foizdan 42 foizga, oliygoҳalarimiz sonini 77 tadan 212 taga yetkazishga erishganimiz, hech shubhasiz, eng muhim yutug'imizdir.

Ta'lim-tarbiya sohasida qabul qilgan dasturlarimiz asosida keyingi vaqtida 261 ta yangi o'rta ta'lim muassasasini qurish, 2,5 mingta maktabni kengaytirish hisobidan qo'shimcha 700 mingta o'quvchi o'rni yaratilganini ta'kidlash lozim.

Bu yil xorijdan taklif etilgan 500 nafar chet tili mutaxassisini maktablarimizda ish boshladи. Kelgusii yillarda ularning sonini 3 barobar oshiramiz, 10-11-sinflardan bir qator fanlarni o'quvchilarining tanlovi asosida chuqurlashdirib o'qitishni yo'iga qo'yamiz.

Ta'lim sohasi xodimlarining o'rtacha ish haqi 2 barobar ko'paytiladi. Ming nafer tarbiyachi va o'qituvchilar xorijiy mamlakatlarga malaka oshirish va stajirovka yuboriladi. O'qituvchilarni ishga qabul qilish, ularning malakasini oshirish va toifa berish tizimi ham takomillashtiriladi. Biz farzandlarimizni milliy g'urur, Vatanga muhabbat, umuminsoniy qadriyatlariga hummat ruhiha tarbiyalashga bundan buyon ham ustuvor ahamiyat qaratamiz.

Qadri do'stlar!

Bugungi kunda mamlakatimizda maktab ta'minli qo'llab-quvvatlash va rivojlantrish umummilliy harakatga aylanib bormoqda. Xususan, navoiylik Abdurakim Saksanov, samarqandliy Qayosh Haqberdiyev, Ilhom Rustamov, buxorolyik Oybek Namozov, qash-qadaryoliq Nurbek Ergashev kabi o'nlab tadbirkorlarimiz o'z hududlarida yangi maktablar qurgani, ta'lim dargohlarini kapital rekonstruksiyasi qilib, zamoniaviy asosda jihozlab bergani, ohangaronlik oqsoqol shoirimiz Barot ota Is-roilov esa hovlisida kutubxona ochib, uni o'z hisobidan 10 mingta kitob bilan ta'minlab, bu ma'rifat maskanini qishloq o'quvchilariga sovg'a qilgani har qancha tahsinga sazovor.

Saflari tobora ko'payib borayotgan mana shunday insonlar siyosida biz jadid bobolari-mizning munosib davomchilarini, ularning ushalayotgan orzu va intilishlarini, Uchinchilik Renesansning mustahkam poydevorini ko'ramiz.

Imkoniyatdan foydalanim, bunday fidoyi, saxovalti yurtoshlarimizga samimiy minnatdorlik bildiram.

Muhtaram yurdoshlar!

Taraqqiyotimiz dasturi bo'lmish "O'zbekiston – 2030" strategiyasida sizlar bilan birga ta'lim tizimini yanada rivojlantrish bo'yicha yangi maqsad va rejalarini belgilab oldik.

Ana shu ustuvor vazifalarni amalga oshirish, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni zimmasiga olishga qodir yangi avlodni tarbiyalash barchamizdan katta kuch-g'ayrat, azmu shiojat bilan mehnat qilishni talab etadi.

Mana shunday sharafli vazifani ado etishda men siz, muhtaram ustozi va murabbiylarga har tomonloma yordam va ko'mak berishga tayyor ekanimni yana bir bor izhor etib, barchangizga sihat-salomatlik, baxtu saodat, olijanob faoliyatindan ulkan muvaffaqiyatlar, xonardonlariningizga fayzu baraka tilayman.

Hamisha sog'-omon bo'ling, muhtaram ustozlar!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

www.zarnews.uz[@zarnews_uz](https://www.facebook.com/zarnews.uz)[@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)**Feruza G'AFFOROVA,
O'zbekiston xalq
o'qituvchisi:**

- Har qanday
davlatning
rivojlanishi, xalq
baxtining, jamiyat
farovonligining
asosi – bu ta'lim.



16-20-oktabr kunlari Samarkand shahrida Birlashgan millatlar tashkilotining Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh assambleyesining 25-yubiley sessiyasi o'tkazilishi kutilmoxda. Tadbir 160 ga yaqin davlatdan turizm yo'nalişida faoliyat yurituvchi idoralar rahbarlari, xalqaro tashkilotlar va turistik biznes vakillarini birlashtiradi.

Forum doirasida "Ulysses Awards UNWTO" mukofotlash marosimi bo'lib o'tadi

Mazkur yirik arjunmanda Investitsiya forumi, Bosh assambleya yalpi majlis, Ta'lim forumi, 69-Yevropa mintaqaviy komisiya yig'ilishi, Turizm va barqaror rivojlanish qo'mitasi, Statistika qo'mitasi, affillangan a'zolar, turizm va raqobatbar-doshlik qo'mitasi yig'ilishlari, Ijroiya kengashining 119-sessiyasi, Hamkor a'zolar uchrashushi, BTV (Eng yaxshi turizm qishlog'i) yig'ilishi, Ijroiya kengashining 120-sessiyasi kabi yirik arjunmanlar o'tkazilishi rejalashirtilgan. Xususan, Xalqaro ta'lim fo-

rumi doirasida "Global Forum on Education: The Foundation of Building Tourism" kengashi bo'lib o'tadi. Xalqaro ta'lim forumi UNWTO Bosh assambleyesining assosi forumlaridan bo'lib, unda dunyoning 30 dan ortiq mamlakatidan turizm sohasida faoliyat yurituvchi 1200 dan ortiq mamlakatimizdan va xorijiliq mutaxassis, ekspertlar ishtirok etishi kutilmoxda. Ular ta'lim, fan va turizm sohasidagi innovatsiyalarga doir dolzab masalalarni muhokama qilishadi. Forum doirasida turizm va ta'lim sohasidagi yutuq va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlovchi "Ulysses Awards UNWTO" mukofotlash marosimi o'tkaziladi.



PROFESSOR-O'QITUVCHILAR "OLIY TA'LIM A'LOCHISI" KO'KRAK NISHONI BILAN TAQDIRLANDI



Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining buyrug'i bilan 1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan oliy ta'lim sohasida vijdonan faoliyat olib borib, yosh avlodning sifatlari ta'limga o'zingin fidokorona mehnati bilan namuna bo'layotgan, tizim rivoji uchun o'zingin munosib hissasini qo'shib kelayotgan bir guruh soha fidoyilar "Oliy ta'lim a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Ular orasida viloyatdagagi oliy ta'lim muassasalarining 30 nafar professor-o'qituvchilar ham bor.

"Oliy ta'lim a'lochisi" ko'krak nishoni Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-oktabrdagi qaroriga binoan ta'sis etilgan.

Ushbu ko'krak nishoni bilan taqdirlanganlarning har biri bazyvy hisoblash miqdorining to'rt baravari miqdorida pul mablag'i bilan mukofotlanadi.

"Zarafshon" va "Самаркандский вестник" – GAZETALARIGA 2024-YIL UCHUN OBUNA BO'LING!

BIZ:

- Samarkand hayotiga oid muhim xabar va yangiliklarni gazetalarimiz va internetdagi sahifalarimiz orqali birinchilardan bo'lib yoritamiz;
- ma'lumotlarni birinchi manbadan olib, sizga yetkazamiz;
- eng muhim, foydali ma'lumotlarni sizga ilinamiz.

OBUNANI TAHRIRIYATNING O'ZIDAN HAM RASMIYLASHTIRISHINGIZ MUMKIN!**Obuna bahosi O'TGAN YILGI NARXDA!****OBUNA –
2024****"ZARAFSHON" gazetasi
(haftada uch marta) obunasi:**

- 640 ming so'm (yakka tartibda tahririyatdan olib ketish, Samarkand shahridagi boshqarmalar, muassasalar, yirik korxonalar va tashkilotlarga yetkazib berish sharti bilan);
- 768 ming so'm (matbuot tarqatuvchilar orqali yetkazib berish sharti bilan).

**"САМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК" gazetasi
(haftada ikki marta) obunasi:**

- 468 ming so'm (yakka tartibda tahririyatdan olib ketish, Samarkand shahridagi boshqarmalar, muassasalar, yirik korxonalar va tashkilotlarga yetkazib berish sharti bilan);
- 561 ming 600 so'm (matbuot tarqatuvchilar orqali yetkazib berish sharti bilan).

U beminnat repetitorlik qiladi.
To'lov talab qilmaydi. O'qituvchilikning mashaqqatlarini boshidan kechirgan, ammo barchasiga sabr qilgan. 10 ga yaqin fan doktori, 700 dan ziyod shifokor, birgina Kadan qishlog'iidan 40 nafr kimyo va biologiya o'qituvchisi yetishib chiqishiga munosib hissa qo'shgan.

Kattaqo'rg'on tumani

15-umumiyl o'rta ta'lim maktabining olyi toifali biologiya fani o'qituvchisi, xalq ta'limi a'lochisi, "Mehnat shuhrat" ordeni sohibasi Dilfuza Nizomova bilan suhbatlashdik.

O'qituvchi bo'lish orzuqningizmida yoki?..

- Aslida o'qituvchi emas, shifokor bo'lishni xohlaganman. Shuning uchun maktabda biologiya va kimyo fanlarini yaxshi o'zlashtirganman. Maktabni bitirayotganimda ko'richak xastaligi bilan shifoxonaga tushib qolganini sababli oliv ta'lim muassasasiga kirish imthonalarida qatnasha olmaganman. Keyingi yili onam menga Samarqand davlat universiteti biologiya fakultetiga hujjat topshirishimni maslahat berdi. Uning nima azzalligi bor, deganimda onam kulimisrab, universitet binolari tangadek oftob nuri tushmaydigan soya-salqin xiyobon atrofida joylashganligini aytgandi. Onamning shu gapidan keyin Samarqand davlat universitetiga hujjat topshirdi va talaba bo'lish baxtiga tuyassar bo'ldim. 1991-yilda oliygojni qizil diplom bilan tugatdim. O'sha yili Samarqand davlat universiteti biologiya fakultetini 48 nafr talaba bitirgan bo'lsa, faqat men aspiranturada o'qishni davom ettirish va shu fakultetda ishlashtimoniya ega bo'lganman. Ammo taqdir ekan, o'zim tug'ilib o'sgan qishloqqa kelin bo'ldim va 15-umumta'lim maktabida biologiya fani o'qituvchisi bo'lib ishlash boshladi.

- Aspirantura, ilmiy izlanishlar nima bo'ldi?

- O'sha vaqtarda qalbimda ulkan ishtiyoq olovlanib turardi. Go'dakligimdayoq ota-onam mening olima bo'lishimni istab, beshigim yostiqchasi ostiga kitob qo'ygan ekan. Shuning uchun bo'lsa kerak, maktabda boshlang'ich sinflarda savodim chiqa

REPETITORLIGI UCHUN PUL OLMAYDIGAN O'QITUVCHI

boshlashi bilan ertak kitoblar o'qiganman. Shu-shu bo'sh vaqtim bo'lsa, qo'limga badiiy kitob olishni odat qilganman. Xullas, ota-onam orzu qilgandek olma bo'lish mumkin. Ana shunday o'quvchilarini o'zim izlab topaman va bepul dars o'tishimni tushuntiraman. Ba'zan bepul bo'lsa ham o'qishiga ruxsat bermagan ota-onalarga iltimos qilishimga to'g'ri kelgan. Aynan shunday oilaarning farzandlari ko'proq yaxshi natija ko'rsatayti. Bilasizmi, bolada iqtidor borligini bila turib, unga ko'maklashmasangiz, bu - gunoh!

- O'qituvchiligidan charchagan vaqt-laringiz ham bo'lganmi?

- Ha, bo'lgan, albatta. Ham maktab darslari, ham qo'shimcha to'garaklar, qolaversa, ro'zg'or yushmanlari sabab jismoni va ruhiyacharchoqlar bo'lgan. Ammo shogirdlarim fan olimpiadalari va tanlovarda g'olib bo'lganida, ularning olyi o'quv yurtlariga kirganini eshitganimda barcha charchoqlarim unut bo'ladi. Lekin o'qituvchiligidan unutilmaydigan azoblarini bo'lgan. Bir paytalar paxta yig'im-terimi, ko'chalarni obodonlash-tirish kabli yushmanlarga jaib etilganimizda o'quvchilarimizning ta'lim-tarbiyasiga e'tibor susayib qolganini eslasam, yurugim og'riydi.

- O'tgan o'quv yilida maktabni tamomlagan shogirdlariningiz va ularning olyi o'quv yurtiga kirish ko'rsatkichlari haqida ham to'xtalib o'tsangiz.

- 2022-2023-o'quv yilida maktabni bitirgan 14 nafr shogirdim mamlakatimizdagi nufuzli olyi ta'lim muassasalariga hujjat topshirdi. Ularning 10 naafari talabalikka tavsija etildi. 6 naafari aynan tibbiyot yo'naliishidagi olyi o'quv yurtlariga o'qishga kirgan. Quvonlari, ularning aksariyati ehtiyojmand oilaarning farzandlaridir.

- Sidqidildan qilingan halol mehnat mukofotsiz qolmaydi.

- To'ppa-to'g'ri. Avvalo, ko'ksimda-mi mukofotlar, "Xalq ta'limi a'lochisi", "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligi" ko'krak nishonlari va "Mehnat shuhrat" ordeni 32 yillik o'qituvchilik faoliyatimning samarisasi. Bundan tashqari, jamiyatim eng zo'r shifokorlar, farmatsevtlar, fidoyi o'quvchilar bilan ta'minlanishiда.

- Siz repetitorlik ham qilarkansiz, ammo o'quvchilardan to'lov talab qilmas ekansiz. Shu to'g'rimi?

- Aslida bu savolningizga javob berish men uchun osonmas. O'ng qo'ling bergan narsani chap qo'ling bilmasin, degan gap bor xalqimizda. Maktabda bir sinfonada 30-40 nafr bola bo'lsa, ularning qiziqishlari har xil bo'ladi. Masalan, kimyo va biologiya

fani qiziquvchan o'quvchilar ko'p. Ayrim oilalar qaysidir o'quv markazi yoki repetitor uchun to'lov qilishga imkoniyati bo'lmasisligi mumkin. Ana shunday o'quvchilarini o'zim izlab topaman va bepul dars o'tishimni tushuntiraman. Ba'zan bepul bo'lsa ham o'qishiga ruxsat bermagan ota-onalarga iltimos qilishimga to'g'ri kelgan. Aynan shunday oilaarning farzandlari ko'proq yaxshi natija ko'rsatayti. Bilasizmi, bolada iqtidor borligini bila turib, unga ko'maklashmasangiz, bu - gunoh!

- O'qituvchiligidan charchagan vaqt-laringiz ham bo'lganmi?

- Ha, bo'lgan, albatta. Ham maktab darslari, ham qo'shimcha to'garaklar, qolaversa, ro'zg'or yushmanlari sabab jismoni va ruhiyacharchoqlar bo'lgan. Ammo shogirdlarim fan olimpiadalari va tanlovarda g'olib bo'lganida, ularning olyi o'quv yurtlariga kirganini eshitganimda barcha charchoqlarim unut bo'ladi. Lekin o'qituvchiligidan unutilmaydigan azoblarini bo'lgan. Bir paytalar paxta yig'im-terimi, ko'chalarni obodonlash-tirish kabli yushmanlarga jaib etilganimizda o'quvchilarimizning ta'lim-tarbiyasiga e'tibor susayib qolganini eslasam, yurugim og'riydi.

- O'tgan o'quv yilida maktabni tamomlagan shogirdlariningiz va ularning olyi o'quv yurtiga kirish ko'rsatkichlari haqida ham to'xtalib o'tsangiz.

- 2022-2023-o'quv yilida maktabni bitirgan 14 nafr shogirdim mamlakatimizdagи nufuzli olyi ta'lim muassasalariga hujjat topshirdi. Ularning 10 naafari talabalikka tavsija etildi. 6 naafari aynan tibbiyot yo'naliishidagi olyi o'quv yurtlariga o'qishga kirgan. Quvonlari, ularning aksariyati ehtiyojmand oilaarning farzandlaridir.

- Sidqidildan qilingan halol mehnat mukofotsiz qolmaydi.

- To'ppa-to'g'ri. Avvalo, ko'ksimda-mi mukofotlar, "Xalq ta'limi a'lochisi", "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligi" ko'krak nishonlari va "Mehnat shuhrat" ordeni 32 yillik o'qituvchilik faoliyatimning samarisasi. Bundan tashqari, jamiyatim eng zo'r shifokorlar, farmatsevtlar, fidoyi o'quvchilar bilan ta'minlanishiда.

- Siz repetitorlik ham qilarkansiz, ammo o'quvchilardan to'lov talab qilmas ekansiz. Shu to'g'rimi?

- Aslida bu savolningizga javob berish men uchun osonmas. O'ng qo'ling bergan narsani chap qo'ling bilmasin, degan gap bor xalqimizda. Maktabda bir sinfonada 30-40 nafr bola bo'lsa, ularning qiziqishlari har xil bo'ladi. Masalan, kimyo va biologiya



Aval gazetamiz sahifalarini va Zarnews.uz saytiga ming dollar miqdorida maosh oladigan o'qituvchilar haqida maqla hamda videolavhalari joylashtirilganligidan xabarimiz bo'lsa kerak. Qahramonlarimiz boshqa hududlardan kelib, viloyatimizning olis qishloqlarida faoliyat yuritayotgan ustozlar bo'lgan. Bu gal o'zi tug'ilib o'sgan Qo'shrabotdag'i ta'lim muassasalaridan birida faoliyat olib borayotgan va muallim ming dollar maosh olishi mumkinligini isbotlagan Zulkumor Imomova hamda uning kasbdoshlari haqida hikoya qilamiz.

- Davlatimiz rahbari o'qituvchilar ming dollar oylik olishi mumkinligi haqida gapirganlarida ko'pchiliklarga ishonmagandi, - deydi u. - Agar oddiy muallim ham o'z ustida ishlab, sidqidildan mehnat qilsa, maoshi undan-da ko'proq bo'lishi mumkin ekan. Buning uchun o'quvchisi o'zini ozgina qiyinashi, shijoatli bo'lishi, sidqidildan mehnat qilishi zarur.

Zulkumor Imomova tumanning Zarkent mahallasida gi 26-umumiyl o'rta ta'lim maktabida 13 yildan beri ingliz tili fanidan dars berib keladi.

- Shu yillarda davomida bu kasbning mashaqqatlarini sabr bilan yengib o'tishga, shodliklarini ko'tarinkilik bilan qarshi olishga harakat qildim. - deydi muallim. - Mana, keyingi yillarda bu o'z samarasini bera boshladi. 5 yildan beri o'quvchilarin fan olimpiadasida tumanida birinchilikni qo'ldan bermay kelyapti.

O'tgan o'quv yilida maktabni bitiruvchilarining 15 naafari mening shogirdlarim. Ularning 5 naafari milliy va xalqaro sertifikatlarga ega. Ana shunday yutuqlarim sabab yaqinda "Vazir jamg'armasi" dan beriladigan ustama uchun o'tkazilgan tanlova mening nomzodim qo'yildi va suhbata bo'tib keldim. Bundan tashqari, olyigimga sinf rahbari va olyi toifali o'quvchisi bo'lganim uchun ustamalar berilyapti. Buning natijasida 13 million so'mga yaqin maosh olyapman.

Maktab nufuzining oshishi o'quvchilarining erishgan yutuqlarini bilan bog'liq. Bunda esa o'quvchilarning or'ni alohida.

- Bir-ikki kishi bilan ko'zlangan natijaga erishib bo'lmaydi, - deydi Zulkumor Imomova. - Bu yo'lda jamoa birlashishi kerak. Keyingi yillarda maktabimizda ana shunday birdamlik ko'zga tashlana boshladi. Hamkasblarini bilan bir yodqadan bosh chiqariba, bolalarga do'stona munosabatda bo'lib, ta'lim-tarbiya berib kelishimiz yaxshi natija beryapti. O'quvchilarining ko'ngliga yo'l topishimiz ularning qaysi kasbi egasi bo'lishiň istayotganini vaqtida aniqlashga va qiziqqan fanlari bo'yicha qo'shimcha to'garaklarga jaib qilishga erishyapmiz. Masalan, men ingliz tilini chuqur o'rgatganim bilan o'quvchi ona tili va adabiyot, tarix yoki matematika fanlari o'zlashtirma-sa, maqsadiga erisholmasligi mumkin.

Shuning uchun ham boshqa o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlaymiz.

- Shu maktabda 4 yildan beri faoliyat yuritib kelyapman, - deydi ona tili va adabiyot fani o'quvchisi Navbahor Qodirova.

- O'quvchilarning o'ziga yarasha qiyinchiliklari bor. Ammo shogirdlar katta-kichik yutuqlarga erishsa, qiyinchiliklari, charchoqlar unutilar ekan.

O'tgan o'quv yilida maktabimiz tamomlagan bitiruvchilarining 67 foizi olyi ta'lim muassasasiga o'qishga qabul qilinishida, 5 nafr o'quvchining milliy sertifikatiga ega bo'lishida hamkasblarim qatori menin ham hissam borilganda xursandman.

670 o'ringa mo'ljalangan ta'lim muassasasida 1311 o'quvchiga 91 nafr pedagog ta'lim-tarbiya berib kelmoqda.

- Ularning 20 naafari olyi toifali o'quvchilaridir, - deydi maktab direktori O'ktam Bo'riev. - Zulkumor Navbahor Qodirova kabi fidoyi ustozlarimiz talaygina. Ularning sa'y-harakatlari bilan bitiruvchilarimizning olyi ta'lim muassasalariga kirish ko'rsatkichi yildan yilga ortib boryapti.

Darhaqiat, 2020-2021-o'quv yilida maktabni tamomlagan bormassan, bir o'zing o'qib o'tirasmani bugingiday, uyda o'tiraqla, qizim", desam, una-may, ertasi kuni ham maktabga olib borishimni ilmos qildi. Qizim ana shunday o'z kasbining fidoyisi bo'lgan ustoz qo'ida ta'lim-tarbiya olayotganidan xursand bo'ldim. Ular ning safi kengaysin!

To'iqin NARZULLAYEV, Baxtiyor MUSTANOV (surat).

Gazetaning navbatagi soni 2023-yil 4-oktabr, chorshanba kuni chop etiladi.

Navbatchi muharrir: A.SHERZOLOV.

Navbatchi: S.MARDIYEV.

Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV.

ISSN-201667X

9 7 7 2 0 1 6 6 7 0 9

Sotuvda narxi kelishilgan holda

Saytimiza o'tich uchun QR-kodini telefoningiz orqali skanner qiling

